



ANDIJON VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR-MART


Sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: 74-228-30-42

Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2023-yil yanvar-mart)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalaridan 10 402,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 98,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (98,4 %)ni tashkil etdi.



B–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C–Ishlab chiqaradigan sanoat D–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, E–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 0,8 % ga, Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashda 22,2 % ga kamayishi kuzatildi.

Shuningdek, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 18,2 % ga va Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilishning 11,0 % o'sishi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 69,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi yil boshidan, % da




Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 240,3 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 98,4 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
yil boshidan, % da




Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2023- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 33 163 dona yengil avtomobil ishlab chiqarilib (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 30,5 % ga kamaygan), 3,6 ming tonna neft (98,1 %), o'sish sur'atlari kuzatildi. va 0 tonna Tozalanmagan paxta yog'i (0 %), 6753,0 tonna Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (56,0 %) kamayish, 2739,3 ming. litr 80%dan etilspirti (0,4 %) kamayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar- fevral	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, dona	33 163,0	47 697,0	-14534,0
Paxtadan yigirilgan ip, t.	4108,8	9771,1	-5662,3
Aroq, ming litr.	0	0	0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	21778,5	33874,0	-12095,5
Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi, tonna.	17438,47	12765,1	4673,37
O'simlik yog'i (tozalanmagan), t.	0	0	0

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yangil avtomobillar 30,5 % ga kamaydi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2023-yilning yanvar-mart oylarida 17 774 dona "Cobalt" (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92,6 %), 1 843 dona "Nexia T-250" (28,0 %), 11 142 dona "Lacetti-Gentra" (57,3 %), 185 dona "Spark" (7,4) 559 dona "Onix" avtomobillari ishlab chiqarildi.

Andijon viloyatida yangil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati 2023-yilning yanvar-mart oylarida, dona




Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil Yanvar-mart	2021- yil Yanvar-mart	Farqi +/-
Etil spirti, <i>ming l.</i>	2739,4	2751,6	-12,2
Uzum vinosi, <i>ming l.</i>	0	0	0
Urug'lik paxta chigiti , <i>tonna.</i>	2460,2	2159,1	301,1
Paxta linti, <i>tonna.</i>	1064,4	1331,4	-267,0
Kalish , <i>ming dona.</i>	1275	818	457

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


2023- yilning yanvar-mart oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (0,6 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 39,4 % ga kamayishi kuzatildi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
yil boshidan, % da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil Yanvar-mart	2022-yil Yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	75,6	19,6	59,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2,5	3,1	-0,6
Elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm.	0	101185059	-101185059

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
yil boshidan, % da



Sanoat mahsulotlari	2023- yil Yanvar-mart	2022- yil Yanvar-mart	Farqi +/-
Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	21,7	15,2	6,5
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	4,2	4,6	-0,4
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar- mlrd.so'm	0,0	0,5	-0,5

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6 595,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 85,7 % ga ko'paygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 63,4 % ni tashkil etdi.



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**
2023- yilning yanvar-mart oylarida


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 581,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 15,6 % ni tashkil etdi.


**Viloyat bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2023-yilning yanvar-mart oylarida

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	6 595,4	100,0	85,7
Andijon viloyati			

**Andijon viloyatida
sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**
2023-yilning yanvar-fevral oylarida

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	10 402,5	100,0	98,4
Andijon viloyati			

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
2023-yilning yanvar-fevral oylarida, ming so'm

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	3 123,4	1 980,3
Andijon viloyati		

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2023-yilning yanvar-mart oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 484,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,9 % ni tashkil etdi.

Viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini (2023-yil 1-aprel holatiga koʻra)

Bugungi kunda viloyatda 10 841 dona sanoat korxonalarini faoliyat koʻrsatmoqda. shundan 3 173 tasi (roʻyxatdan oʻtgan korxonalar umumiy sonining 34,1 % i)

**Sanoat statistikasi
boʻlimi**

Tel.: (74) 228-30-42